

MA'LUMOTNOMA № 47 ( 17 iyul 2025-yil)

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti 1-bosqich bosqich 6-2 Uzb 24-guruh guruh talabasi Toyirova Zaxro Mohir qizining 2024/2025-o'quv yilida "Ma'rifat darslari"ga faol ishtiroki to'g'risida.

Berildi ushbu ma'lumotnoma shuhaqdaki, 2024/2025-o'quv yilida talaba Toyirova Zaxro Mohir qizining "Ma'rifat darslari"ga faol ishtiroki o'rganildi va 10 (o'n) ball bilan baholandi.

Fakultet dekani:  Q.R.To'xsanov



**Buxoro davlat universiteti**

**Filologiya fakulteti**

**Filologiya va tillarni o'qitish: O'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabalariga "Bir bo'lsak yagona xalqimiz, birlashsak Vatanimiz" bosh shiori ostida "Najot-ta'limda,najot-tarbiyada, najot-bilimda" mavzusida Mustaqillik darslari tashkil etilganligi to'g'risida**

**BAYONNOMASI**

Buxoro shahar

2024-yil 10-sentabr

**Qatnashdilar:**

Tyutor R.D.Muqumova va Filologiya va tillarni o'qitish 6-1UZB 24,6-2Uzb 24 ,6-3Uzb 24 va 6-4 UZB 24 talabalari

Jami: 90 ta talaba

**K U N T A R T I B I:**

1. "Najot-ta'limda,najot-tarbiyada, najot-bilimda" mavzusida Mustaqillik darslari"ni sifatli tashkil etish.
2. Mustaqillik darslarida milliy g'oya targ'iboti, xalqimizning milliy yuksalish yo'lidagi maqsadlari,

**ESHITILDI:**

Guruh tyutori R.D.Muqumova tomonidan Mustaqillik darslari talabalarga xalqimizning 33-yil davomida erishgan yutuqlari Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun mohiyati borasida keng ma'lumotlar berildi.

Joriy yilning 10-sentabr kuni Filologiya fakulteti tyutori R.D.Muqumova tomonidan 6-1UZB 24,6-2Uzb 24 ,6-3Uzb 24 va 6-4 UZB 24 guruh birinchi bosqich talabalari bilan "Najot-ta'limda,najot-tarbiyada,najot,bilimda" g'oyasining mohiyati mavzusida mustaqillik darsi o'tkazildi.

Chindan ham, davlatimiz rahbari qarorida ta'kidlanganidek, aynan milliy mustaqillik el-yurtimiz uchun jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish, shu jumladan hayotning turli soha va tarmoqlarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratib, erishayotgan barcha yutuq va marralarimizning asosiy manbai bo'lib kelayotgani ayni haqiqatdir.

Mamlakatimizning barcha hududlari singari ko'hna va hamisha navqiron Buxoro shahrida mustaqillik yillarida ro'y bergan mislsiz o'zgarishlardan ko'z quvnaydi. Ayniqsa keyingi 4-5 yilda Ipak yo'li chorhasida joylashgan ushbu shaharda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, aholi turmush farvonligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar ijrosi ko'pchilikka yaxshi ma'lum. Sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va boshqa sohalarda erishilgan yutuqlar barcha buxoroliklar qalbida faxr-iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik, hamjihatlik va bag'rikenglik mustahkam qaror topdi. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-

oqibat tuyg‘ulari odamlar qalbi va shuuridan chuqur joy oldi. Ajdodlar xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, bugun saflarimizda yurgan, el-yurt tinchligi va ravnaqi yo‘lida xizmat qilgan keksalarni e‘zozlash ma‘naviy hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

Mustaqillik kunlarida millatimiz oydinlari xotirasini e‘zozlash, xizmatlarini eslash yaxshi an‘ana bo‘lib kelayotgani, ularning ruhlariga duolar qilinishi eng ezgu amallarimizdandir. Shu maqsadda, joriy yilning 31 avgust kunisi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Shahidlar xotirasi xiyobonida qatag‘on qurbonlarini yod etish marosimi ishtirok etdi.

### **QAROR QILINDI:**

**1"‘Najot-ta‘limda,najot-tarbiyada, najot-bilimda”** shiori ostida Mustaqillik darslarini sifatli tashkil etish maqsadida talabalar bilan namunali tashkil etilganligi qayd etilsin.

2.Tyutor R.D.Muqumova tomonidan Mustaqillik darslarida milliy g‘oya targ‘iboti, xalqimizning milliy yuksalish yo‘lidagi maqsadlari talabalarga tushuntirildi

**Bayonlashtirdi:**

**R.D.Muqumova**



15498  
08051  
f:\5498  
08051\BuxDU\_Filodgva\_Fakultet



Buxoro davlat universiteti Filologiya fakultetida "O'zbekistondagi parlament tizimi va undagi islohotlar" mavzusi asosida o'tkazilgan axborot va tyutorlik soati

## **BAYONNOMASI**

Buxoro shahar

24.09.2024.

**QATNASHDILAR:** Filologiya fakulteti tyutori R.D.Muqumova va 6-1 va 6-2 Uzb 24 guruh talabalari

### **KUN TARTIBI:**

1. "O'zbekistondagi parlament tizimi va undagi islohotlar" mavzusida axborot soatini o'tkazish.

### **ESHITILDI:**

Joriy yilning 24-sentabr kuni Filologiya fakulteti tyutori R.D.Muqumova o'ziga biriktirilgan 6-1 va 6-2 UZB 24 guruhi talabalari ishtirokida "O'zbekistondagi parlament tizimi va undagi islohotlar" mavzusida axborot va tyutorlik soati o'tkazdi. Talabalarga mamlakatimizda bo'layotgan islohotlar, o'zgarishlar, yangiliklar haqida alohida to'xtalib o'tildi .

### **QAROR QILINDI.**

1.Talabalar bilan muntazam ravishta shu mavzu yuzasidan suhbat va uchrashuvlar tashkil qilinsin.

Bayonlashtiruvchi: R.D.Muqumova.

<https://t.me/tyutorBuxDU/37105>



.....  
<https://t.me/tyutorBuxDU/37105>



**Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti tyutori R.D.Muqumovaning  
6-1 uzb 24 va 6-2 uzb 24 guruh talabalari bilan o‘tkazilgan ma’rifat darsi**

### **BAYONNOMASI**

**31.01.2025 yil**

**Buxoro shahri**

- I. Qatnashuvchilar: 1. Guruh tyutori  
2. Talabalar ( 46 nafar)

II. Kun tartibidagi masalalar:

-Haftaning muhim siyosiy – ijtimoiy voqealari haqida.

**“ SHUKRONALIK – ENG ULUG‘ FAZILATDIR”** mavzusida suhbat uyushtirish

Eshitildi: tyutor R.D.Muqumova “Shukr” so‘zi lug‘atda maqtov, minnatdorchilik bildirish, rahmat va tashakkur aytish ma’nolarini ifodalasa, ne‘mat esa huzur-halovat, farovonlik, mo‘lchilik, farovon turmush, mol-mulk, boylik va ne‘mat kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. Haqiqatdan ham, Yaratganning bizlarga bergan ne‘matlarining hisobiga yetish mushkul va og‘ir ish. Bu ne‘matlar ichida biz his qilgan va qilmagan, bilgan va bilmagan behisob ne‘matlar bor. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz har doim “Allohim bergan barcha ne‘matlaringga behisob, beaded shukronalar bo‘lsin” deb duo qilganlar va har doim shukronalikda yashaganlar. Berilgan ne‘matlarga shukr qilmaslik, noshukurlik qilish, albatta, ne‘matni zavolga uchratadi, yo‘qotadi. Ulamolarimiz ne‘matlarga shukr qilishni 3 turga bo‘lganlar.

– **Qalb bilan shukr qilish** – inson yaxshilikni qasd qiladi va buni barchaga bo‘lishini istaydi. Bu o‘rinda qalb musaffo, pok bo‘lishi kerak. Qallda yomonlik, nafrat, adovat kabilar bo‘lmasligi lozim.

– **Til bilan shukr keltirish** – ne‘mat uchun Allohga maqtov, shukronalik izhor qilishdir.

– **A‘zolar bilan shukr keltirish** – Allohning ne‘matlarini Uning toat-ibodati yo‘lida sarflash va ular (ko‘z, quloq, qo‘l, oyoq,...) yordami bilan gunohkor bo‘lishdan saqlanish. Masalan, oyoqning shukrini ado qilish uchun birovni uyiga o‘g‘irlikka kirmaslik, zinoga bormaslik.

Inson o‘ziga berilgan ne‘matlarga shukrona keltirishining o‘zi ham Yaratganning bir ne‘mati ekan. Shunday kimsalar ham oramizda uchraydiki, ular doimo kufirona ne‘matdan o‘zga narsani bilmaydilar, ya‘ni noshukrlik va nonko‘rlik qiladilar.

Maqbul shukr faqatgina so‘z bilan ifoda qilinmaydi. Haqiqiy shukr bir-biriga bog‘liq uchta narsadan tashkil topadi. Bular: **ilm, hol va amal.**

**Ilm** – barcha ne‘matlarning Haqdan kelganini bilish;

**Hol** – ne‘matlarning haqiqiy sohibiga nisbatan ta‘zim, hurmat va muhabbatli bo‘lish;

**Amal** – mazkur tuyg‘ularga ko‘ra yashab, shukrni so‘z va fe‘l (amal) bilan bajarish. Ya‘ni til bilan shukr qilish yetarli emas. Uni solih amal, harom hamda shubhali narsalardan saqlanish bilan ham isbotlash kerak.

Ne‘matga shukr qilish odam sifatlanishi lozim bo‘lgan eng ulug‘ va go‘zal axloqiy sifatlardan biridir. **Shukr** - ezgulik ulashgan kishiga chiroyli maqto‘v va yaxshilik evaziga qilinadigan mukofotdir.

Vatanimiz osmoni musaffo, tinchlik-osoyishta bu hayotimizni shukrini qilish shu aziz yurtda yashayotgan har bir fuqaroning ham qarzi, ham farzi bo‘lishi darkor. O‘zini, oilasini, yaqinlarini, butun insoniyatni va kelajak avlodlarni o‘ylagan har bir shaxs bu haqiqatni teran anglaydi. Bu ishda har kim qo‘lidan kelgan hissasini qo‘shmog‘i lozim. Bilib turib beparvo bo‘lishga hech haqqimiz yo‘q. Filologiya fakulteti tyutori Muqumova Ruxsora Dilmurotovna tomonidan 6-1 Uzb 24 va 6-2 Uzb 24 guruh talabalari ishtirokida "Shukronalik - eng ulug‘ fazilat" mavzusida ma‘rifat darsi o‘tkazildi.

**Yuqoridagilarga asosan yig‘ilish qaror qiladi:**

1. **“ SHUKRONALIK – ENG ULUG‘ FAZILATDIR**

” mavzusida o‘tkazilgan yig‘ilish ma‘lumot ucnun qabul qilinsin.

2. Tyutor R.D.Muqumova va guruh sardori bilan birgalikda:

- ma‘ruza matnlari bo‘yicha talabalar tomonidan o‘rganilishi va ma‘naviyat va ma‘rifat daftarlariga konspektlashtirilishi nazoratga olish;

- amalga oshirilayotgan ishlarning doimiy monitoringini olib borishi belgilansin;

3. O‘tkazilgan sayyor ma‘rifat darsi natijalari yuzasidan tuzilgan bayonnoma rasmiylashtirilsin.

**Tyutor:**

**R.D.Muqumova**



<https://t.me/tyutorBuxDUJ44893>



24-mart  
 mavzu: O'zbekiston Prezidenti davlat rahbarlarining uch tomonlama uchrashuvida ishtirok etdi.  
 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 31-mart kuni Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va O'zgas Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan uch tomonlama uchrashuvida ishtirok etdi.  
 Uchrashuv avvalida davlat rahbarlari bir-birlarini muborah Ramazon bayrami bilan qutladilar. Bular xalqimizga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

7.04.2026  
 mavzu: O'zbekiston Respublikasining nisaning - ijtimoiy, iqtisodiy hayotida haftada davomida raiy bergan vaqtlar yuzasidan "Ma'rufat davri" imkoniyatlarini oshirish uchun.  
 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-aprel kuni Itay Itay Respublikasi Kommu-nistlik partiyasi Markaziy qo'miteti Xalqaro alegalari bilan muhim duni bozori chiqarish boshchiligidagi dele-gatsiyani qabul qildi.  
 Uchrashuvida bily davo-ri qo'shni davlatlar bilan o'zaro munosabatlarini oshirish va O'zbekiston Respublikasi bilan Itay Itay bozori qo'shni hamkorlik va amaliy

14.04.2025  
 mavzu: O'zbekiston Respublikasining nisaning - ijtimoiy, iqtisodiy hayotida haftada davomida raiy bergan vaqtlar yuzasidan "Ma'rufat davri".  
 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-aprel kuni Itay Itay Respublikasi Kommu-nistlik partiyasi Markaziy qo'miteti Xalqaro alegalari bilan muhim duni bozori chiqarish boshchiligidagi dele-gatsiyani qabul qildi.  
 Uchrashuvida bily davo-ri qo'shni davlatlar bilan o'zaro munosabatlarini oshirish va O'zbekiston Respublikasi bilan Itay Itay bozori qo'shni hamkorlik va amaliy

21.04.2025  
 mavzu: O'zbekiston Respublikasining nisaning - ijtimoiy, iqtisodiy hayotida haftada davomida raiy bergan vaqtlar yuzasidan "Ma'rufat davri".  
 Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 14-aprel kuni Itay Itay Respublikasi Kommu-nistlik partiyasi Markaziy qo'miteti Xalqaro alegalari bilan muhim duni bozori chiqarish boshchiligidagi dele-gatsiyani qabul qildi.  
 Uchrashuvida bily davo-ri qo'shni davlatlar bilan o'zaro munosabatlarini oshirish va O'zbekiston Respublikasi bilan Itay Itay bozori qo'shni hamkorlik va amaliy

